SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/5 (3) - 2023

# ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

# АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

# ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ
ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
ELECTRONIC JOURNAL

**ISSN:** 2181-1342 (Online)

**Сайт:** https://scienceproblems.uz

**DOI:** 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/5 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Crossref DOI:**

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

**Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**


*Кайпова Малика Дауытбай қизи*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ ........ 9-13

*Фарманова Гульнара Комилевна*
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ САМАРКАНДСКОГО СОГДА ........ 14-19

*Aminov Xurmatbek Baxram o‘g‘li*
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ........ 20-25

*Мустафоев Жонибек Аралбоевич*
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ ОҚИБАТЛАРИ (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ........ 26-31

*Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOIY DAVLATNI SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI ........ 32-36

*Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45

*Назаров Комил Шамсуддинович*
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ ........ 46-51

*Matajonov Rahimjon Akramovich*
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ........ 52-58


**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ**


*Остонокулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИЯТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ........ 59-69

*Narmatatov Ixtiyor Baxtiyorovich*
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN ........ 70-75

*Хамраев Джамшид Панжиевич*
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ........ 76-81

*Кулибоев Азамат Шоназарович*
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ........ 82-91

*Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH USULLARI VA AFZALLIKLARI ........ 92-97

*Саатмуротов Шоҳрух*
МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ ...................... 98-103

*Шакирова Фароғат Болтаевна*
АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ ........................................ 104-113

*Кадиров Лутфулло Халимович*
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ ........................................ 114-121

*Ibragimova Zarema Zokirovna*
DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TAHLILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .............. 122-129

*Қодиров Азизжон Анварович*
«COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ ........................................ 130-137

## 09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

*Sharipov Dilshod Baxshilloyevich*
JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINChLIKKA OID QARASHLARI ...................................... 138-145

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
XOJA AHROR VALIYNING TINCHLIK, OSOYISHTALIK VA HAMJIHATLIKKA DOIR G‘OYALARI – BARQAROR TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA ........................................ 146-151

*Орзиев Иқболжон*
АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ ........................................ 152-157

*Turabova Sevara Kattaqulovna*
ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA BAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O‘RNI...... 158-165

## 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

*Israil Mukaddas Irgashevna*
BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDA O‘RGANISH USULLARI .......... 166-172

*Nishonova Xurshida Yusufjanovna*
A’ZAM O‘KTAM SHE’RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E’TIQODIY QARASHLAR ........................................ 173-178

*Маматкулова Камола Шавкат кизи*
ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ ........................................ 179-184

*Hamroyeva Dilfuza Jamolovna*
O‘ZBEK XALQ QO‘SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIIY TALQINI ........................... 185-189

*Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna*
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIYAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH

MASALALARI ...... 190-195

*Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi*
ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI ...... 196-200

*Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor*
FARZONA XOʻJANDIY SHEʼRLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIIY IFODASINING XUSUSIYATLARI ...... 201-206

*Kholiyorov Bunyod*
THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS ...... 207-213

*Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak*
NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI ...... 214-219

## *12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР*

*Файзиев Шухрат Хасанович*
ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ...... 220-225

*Nishonov Abdulloh Ubaydulloh oʻgʻli*
ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TAʼMINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ...... 226-233

*Safoeva Sadoqat Musoeva*
IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI ...... 234-246

*Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли*
АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ ...... 247-253

*Турсунова Маликахон Улуғбековна*
ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ ...... 254-258

## *13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ*

*Atamatov Abduxalil Salomovich*
OLIY TAʼLIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI Oʻ QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY Oʻ ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ...... 259-265

*Omarova Gavhar Sadikovna*
HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA ...... 266-271

*Baratov Joʻraqoʻzi Shukurjon oʻgʻli*
BOʻLAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI ...... 272-277

*Kuchkarova Arofathon*
THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS ........ 278-283

*Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna*
UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIIYATINI O'QITISH TARIXI ........ 284-288

*Masharipov Ravqat Madraximovich*
KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH ........ 289-295

*Niyozmatov Anvar Bahodirovich*
XORAZM XALQ O'YINLARI ........ 296-303

*Qodirov Xasanboy Oribjonovich*
OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI ........ 304-309

*Kejaboev Abdusalim Erkaboevich*
PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIY RAHBAR KOMPETENTLIGI ........ 310-315

*Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIY TA'MINOTI ........ 316-322

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/5 (3)-2023**
**ISSN: 2181-1342 (Online)**
**https://scienceproblems.uz**

*10.00.00- Филология фанлари*

**Mirzoyev Masudjon Kimsanovich**
Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

**Niholchonova Navbahor**
Samarqand davlat unversiteti talabasi

## FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIIY IFODASINING XUSUSIYATLARI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Tojikiston xalq shoiri Farzonai Xo'jandiy she'rlarida mifologik personajlar badiiy ifodasining xususiyatlari tadqiq qilinadi. Shoiraning mifologik personajlarning shoirona san'at va mahorat ila yangicha talqin etganligini o'rganish asosiy maqsad etib belgilandi.

**Kalit so'zlar:** Farzona, talmehot, mifologik, badiiy, Zahhok, Somiriy, Sino, Iso, Xizr, Rustam, Raxsh, jin, Ahriman, Odam Ato, Momo Havo.

**Mirzoev Masudjon Kimsanovich**
Teacher of Fergana State University

**Niholchonova Navbahor**
Student of Samarkand State University

## FEATURES OF ARTISTIC EXPRESSION OF MYTHOLOGICAL CHARACTERS IN THE POEMS OF FARZONA KHOJANDI

**Abstract.** This article discusses the features of the artistic expressiveness of mythological characters in the poems of the national poet of Tajikistan Farzonai Khojandi. The main goal was to explore the poet's new interpretation of mythological characters with poetic art and craftsmanship.

**Key words:** Farzona, talmehot, mythological, art, Zahhok, Samiri, Sina, Jesus, Khizr, Rustam, Rakhsh, demon, Ahriman, Adam, Eve.

**Мирзоев Масуджон Кимсанович**
Преподаватель, Ферганский государственный университет

**Нихолчонова Навбахор**
Студентка, Самаркандский государственный университет

## ОСОБЕННОСТИ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫРАЖЕНИЯ МИФОЛОГИЧЕСКИХ ПЕРСОНАЖЕЙ В ПОЭМАХ ФАРЗОНЫ ХУДЖАНДИ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности художественной выразительности мифологических персонажей в стихотворениях народного поэта Таджикистана Фарзона Худжанди.

Основная цель состояла в том, чтобы изучить новую интерпретацию поэтом мифологических персонажей с поэтическим искусством и мастерством.

**Ключевые слова:** Фарзона, талмехот, мифологический, художественный, Заххок, Самири, Сина, Исус, Хизр, Рустам, Рахш, демон, Ахриман, Адам, Ева.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N29

Zamonaviy badiiy nasrda bugungi kunda mualliflarning qadimgi mifologiyaga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Qadimgi Yunonistonning "Yangi va eski avlodlar oʻrtasidagi kurash, Olimpiya dunyosining goʻzalligi, uygʻunligi va tartibini" aks ettiruvchi afsonalari koʻplab yozuvchilarning cheksiz ilhom manbai boʻlib, ularning talqinining mutlaqo boshqacha proeksiyasini yaratadi.

Yozuvchilarning mifologik elementlarga murojaatini qadimgi davrlardan boshlab jahon adabiyoti tarixi davomida oʻrganish mumkin.

Afsonalar shaklini tavsiflovchi tushunchalar koʻpincha noaniqlik va subyektivlik bilan ajralib turadi, bu zamonaviy yozuvchiga badiiy mifologizm usullaridan foydalanishga imkon beradi, ularni hayratlanarli darajada aralashtirib, birlashtiradi. Biroq, ushbu masalani oʻrganishda hali ham badiiy mifologizmning ma'nosini aniq aniqlash muammosi mavjud, mifologiya mohiyatini anglashning nazariy asoslari yaxlitlik va birlikka ega emas. Mifologiyaning yagona nazariyasini yaratish uchun bir qator ilmiy va falsafiy muammolarni hal qilish talab etiladi.

Asarda turli xil tabiiy mavjudotlar va qahramonlarning eslatilishi oʻziga xos, ammo ustun emas, balki badiiy mifologizmdan foydalanishning muhim belgisidir, chunki bu holda biz faqat tasvirlar va ismlar haqida gapirishimiz mumkin, shuningdek, mifologik deb hisoblanishi mumkin boʻlgan motivlar soni juda keng boʻladi va adabiyotda badiiy mifologizmni aniqlash imkonsiz boʻladi.

N.G.Chernishevskiy fors-tojik adabiyotining buyuk klassigi Abulqosim Firdavsiy haqida shunday deydi: "Firdavsiyning ajoyib ijodi "Shohnoma" xalq qoʻshiqlari yigʻindisi va ularni qaytadan ishlashdir. Unda shunday goʻzal narsalar borki, unday goʻzal narsalar "Iliada" va "Odisseya"da ham topilmaydi". N.G.Chernishevskiyning fikriga binoan bunday muvaffaqiyatning siri "Shohnoma"ning xalq she'riyatiga, xalq qoʻshiqlariga yaqinligi va uning tom ma'nosi bilan xalqchilligidadir. Agar biz Firdavsiyning Navoiyga koʻrsatgan ta'sirini va Navoiyning Firdavsiyga boʻlgan buyuk hurmatini nazarga olsak, N.G.Chernishevskiyning Firdavsiy ijodiga bergan bahosi Alisher Navoiy ijodiga ham bevosita tegishli ekanligi ma'lum boʻladi[8,6].

Yuksak insonparvarlik gʻoyalarini oʻzida mujassamlashtirgan xalq ogʻzaki ijodi unsurlarining badiiy talqini Roʻdakiy, Firdavsiy, Nosir Xisrav, Nizomiy Ganjaviy, Xayom, Jaloliddin Balxiy, Xoja Hofiz, Sa'diy, Kamoli Xoʻjandiy, Ubayd Zokoniy, Jomiy, Vosifiy, Mushfiqiy, Hiloliy, Bedil, Sayido, Savdo, Shohin, Ahmadi Donish kabi klassik fors-tojik adabiyotining yirik vakillari asarlari folklorning yozma adabiyotga koʻrsatgan ijodiy va ijobiy ta'sirining yorqin misolidir.

Shoir muayyan zamon va makonda yashaydi, ijod qiladi. Uning tafakkuri, dunyoqarashi va badiiy ijodida madaniy, ijtimoiy-siyosiy muhitning oʻziga xos xususiyatlari muhim oʻrin tutishi tabiiy. Har bir davr adabiyoti oʻzining siyosiy-ijtimoiy voqealari bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, uning taraqqiyoti, evolyutsiyasi ana shu omillar ta'sirida sodir boʻladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Farzona she'ri ustozi Loiqning, Loiq she'ri oʻzining ustozi Tursunzoda she'rlaridan farq qiladi. Mustaqillikdan oldingi davr adiblari ogʻzaki adabiyot unsurlari, ayniqsa, mifologik, diniy va xalq e'tiqodlaridan oʻsha davrdagi hukmron mafkura talablaridan kelib chiqib,

foydalanishga majbur edilar[1,15-30]. Shu bois “Ayniy, Lohutiy, Payrav, Habib Yusufiy, Tursunzoda va boshqalarning maktabidan taʼlim olgan shoirlar sheʼriyatida bu yoʻnalish (diniy. M.M) kuzatilmaydi”[2,189].

Bizningcha, mustaqillikdan oldingi davr sheʼrlarida xalq madaniyati unsurlari aks etishining oʻziga xos jihatlari qoʻyidagilarda namoyon boʻladi:

1. Diniy mavzularda sheʼrlar yozish, diniy mazmun va obrazlarni zamonaviy tojik sheʼriyatiga kiritish tendensiyasi oʻtgan asrning 90-yillarida boshlangan[3,158]. Mustaqillikkacha boʻlgan sheʼriyatda ustoz Loiqning “Ba modaram”, “Dar shabi baron” kabi baʼzi sheʼrlari hisobga olinmaganda, diniy eʼtiqodning badiiy talqini, islomiy soʻzlarning qoʻllanishi deyarli kuzatilmaydi.

2. Xalq eʼtiqodi, urf-odatlari, toʻy va motam marosimlari ham hukmron mafkura nuqtai nazaridan “eski” va “zamonaviy”, “inqilobiy” va “demokratik” deb guruhlarga boʻlingan va sheʼrda shu nuqtai nazardan qoʻllangan.

3. Navroʻz, bahor, yangi yil va boshqa bayram-u marosimlarga bagʻishlangan sheʼrlarda badiiy soʻz sanʼatlaridan foydalanish kam koʻzatiladi va asosan nazmiy shaklda yozilgan madh va tabriklardan iborat.

4. Doʻstlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, odob-axloq mazmunidagi xalq maqol va matallari koʻp uchraydi. Biroq xalq hikmatlaridan ham foydalanishda oʻsha davr mafkurasining taʼsiri yaqqol seziladi. Masalan:

*Аз ахгари* ***инқилоби*** *мо сӯхт,*

*Дунёи ситамгарон чу хошок.*

*Афсус махӯр, ки сӯхт олам,*

*Баргӯй, ки* ***“Хас каму ҷаҳон пок”.*** (Айнӣ)[1,91] (**Mazmuni**: Bizning inqilobimiz olovida zolimlar dunyosi xas-xashak kabi kuydi, dunyo yonayotganidan afsuslanma va “Xas kamu jahon pok!” degin.)

Yoki:

*Душмани камбағалон боз ба пеш омадааст,*

***Гург ин мартаба дар ҷомаи меш омадааст.*** (Лоҳутӣ)[1,91] (**Mazmuni**: kambagʻallar dushmani bu gal “qoʻy libosidagi boʻridek” kelyapti.)

Biz oʻsha davr sheʼriyati zamonning mutlaq hukmdorining mustabid tizimi taʼsirida milliylikdan, oʻziga xoslikdan butkul xoli boʻlgan degan fikrdan mutlaqo yiroqmiz. Milliy ruh, etnik xususiyatlar ustod Mirzo Tursunzoda sheʼrlarida sezilarli daraja oʻz ifodasini topgan. Masalan:

*Аллагӯён тифлро хобондаӣ,*

*То саҳар гаҳворааш ҷунбондаӣ.[5,70]* (**Mazmuni**: *Tonggacha alla aytib, chaqaloq beshigini tebratding.*)

Oʻtgan asrning 80-yillaridan boshlab M.Qanoat, Loiq Sherali, B.Sobir, Gulruxsor, Gulnazar, A.Hakim, D.Najot, Farzona, Siyovush, Surush, Ozar va boshqa shoirlarning saʼy-harakatlari bilan tojik sheʼriyatig mazmun-mundarijasi va badiiyligi yuksaldi. Yetmish yildan ortiq vaqt oraligʻida milliy uygʻonish, falsafa, irfon, oʻzlikni anglash, ajdodlar tili, tarixi, dini va madaniyatiga hurmat, badiiy tafakkur va tasavvur zamonaviy tojik sheʼriyatida, ayniqsa, Farzona Xoʻjandiy ijodida yanada jonlandi. Bu fikrni tasdiqlash uchun Farzona Xoʻjandiyning talmeh sanʼatidan (Prometey, Buddo, Muso, Mitro, Mustafo) foydalanib, oʻzining ezgu maqsadini, milliy va umumbashariy qadriyatlar uygʻunligini nihoyatda taʼsirchan, betakror tarzda ifodalagan “**Qafasdagi ozodlik**” sheʼridan dalil keltirish mumkin:

*Nechun men ishq deyman?*

*Chunki ishq jismi ozod*

*Zamon, makon, din-u mazhab panjaralaridan.*
*Ishq zangimas, farangimas, xurosonlimas,*
*Ozod-yapon ashyosini tagʻmalaridan.*
***Prometey** olovi ham, **Mitra** jilosi,*
***Iso** xochi, ham **Buddaning** nilufari – ishq.*
*Ishq – **Musoning** kaftidagi umrboqiy nur,*
*Ishq – **Mustafo** meʼrojidir, bari, bari – ishq.*
*Ishq – eng tugal xulosasi maʼrifatlarning,*
*Anglab yetgin,*
*Ishq – Xudoga birikkan qasam.*
*Shunday ekan, balandroq boʻl uzingdan, zero,*
*Ishq oʻladi chumoliga ozor bersang ham [6,7].*

Xalqimizning mifologik tasavvurlari negizida shakllangan epik motivlar va obrazlardan ijodiy foydalanish Farzona ijodida davom etmoqda. Shoira she'rlarida qoʻllangan mifologizmlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. *Qadimgi oriyoyi qavmlar, jumladan, tojik mifologizmlari*. Oriyoyi miflarning ham asosiy mazmun-mohiyatini ezgulik (Zardusht, Hurmuzd, Farishta va ...) va yovuzlik (Axriman, Shayton, Iblis va...) oʻrtasidagi murosasiz kurash tashkil etadi. Ushbu azaliy va abadiy antogonizm (murosasiz ziddiyat) Farzona sheʼrlarining asosiy mavzularidan sanaladi. “Milliy qadimiy miflarda Zahhok boshidanoq nurga – ezgulikka dushman, zulmatning – yovuzlikning homiysi boʻlgan” [4,23]. Farzona sheʼrlarida koʻp uchraydigan “subh” (tong), “xurshed” (quyosh), “nur” soʻzlari va ularning sinonimlari koʻp hollarda yorugʻlik, ezgulik va poklik timsoliga (ahuroi) aylanib, yovuzlik va zulmat timsoli – Ahreman va Zahhokka qarshi qoʻyiladi. Quyidagi baytda Farzona oʻz davrining ijtimoiy muammolarini ezgulik tivsoli – Faridun va yovuzlik obrazi – Zahhok asosida yuksak badiiyat bilan taʼsirchan ifodalaydi:

***Faridun** toʻqmogʻi yangligʻ yoʻqlikka*
*Uloqqanda quyosh,*
*Zulmat **Zahhok**i*
*Chaldi gʻalabaning nogʻorasini.*
*Ey, tun, ey gazanda zulmat, men bukun*
*Yulduzsizdan koʻra yulduzsizroqman...*
*Iymon goʻri uzra nagʻora qoqing,*
*Oʻynaylik,*
*Ey, **shayton** merosxoʻrlari! [6,98].*

“Sarvi Kishmar” sheʼrini shoir Zardushtning afsonaviy Kishmar sarvi daraxti va oshiq yigit – Shahriyor asosida yaratilgan qiziqarli va ibratli hikoyasidir:

*Ба нахлаш **Сарви Кишмар** ном бинҳод,*
*Ба **саври қудсии боғи биҳиштӣ.***
*Ба он сарве, ки чун **“Занд”**-у **“Авасто”***
*Бувад эҷоди халқи **зардуҳуштӣ**..[7,94].* (**Mazmuni**: *“Zand” va “Avesto” kabi Zardusht xalqi ijodi boʻlgan daraxtiga “Sarvi Kishmar” deb nom quydi*)

Farzona sheʼrlarida Jamshid, Faridun, Rustam, Raxsh, Siyovush kabi mif va afsonalarga xos obrazlar yangicha ijodiy talqinda gavdalanadi.

*2. Diniy eʼtiqodlar bilan bogʻliq mifologik va tarixiy siymolar. **Odam Ato*** va ***Momo Havo*** sheʼriy timsollar, badiiy tasvirning eng koʻp ishlatiladigan obrazlaridan hisoblanadi. Biroq,

fikrimizcha, quyidagi misralarda ifodalangan shoirona tafakkurning analogi tojik she'riyatida bu tarzda uchramaydi:

*Биёндешам, кӣ буд он ки Худоро бештар ранҷонд,*

*Гунаҳкории* ***Одам*** *ё гуноҳомӯзии* ***Ҳавво...*** [3,119] (**Mazmuni**: *Xudoni kim ko'proq ranjitdi: Odam Atoning gunohkorligi yo Havoning gunoh qilishga o'rgatishimi?)*

3. *Barhayot tarixiy, ilmiy va adabiy siymolar* Farzona she'riyatining badiiy va g'oyaviy saviyasini yuksaltiradi, o'quvchini ezgulik va yaratuvchanlik sari chorlaydi:

***Исои*** *башоратовари фардо бош,*

***Синои*** *саломатовари дунё бош [7,371]. (**Mazmuni**: Erataning bashorat keltiruvchi Isosi, dunyoning salomatlik keltiruvchi Sinosi bo'l.)*

*Дар ин ҷамоаи беишқҳо намеғунҷам,*

*Ба дашт меравам охир чу вориси* ***Маҷнун[3,259].*** *(**Mazmuni**: Bu ishqsizlar jamoasiga sig'mayin, Majnun misoli sahroga ketarmyen.)*

*Айби нодилбариям буд, ки* ***Ширин*** *нашудам,*

*Навтавонистамат, эй хоҷа, ки* ***Фарҳод*** *кунам [7,123].* (**Mazmuni**: *Dilbar bo'lmaganim aybi bilan Shirin bo'lolmadim, ey xojam, kechirgil, seni Farhod qilolmadim.*)

Farzona she'rlari mifologik diniy obrazlarning ko'pligi bilan ajralib turadi. Birgina ikki jilddan iborat "Hama gul, hama tarona" she'rlar to'plamida Zardusht – 12, Hormuzd – 8, Axuro (ahuroi) – 35, farishta – 38, Iso – 28 (Isi, Iso, Maseho shakllarida) Maryam – 22, Ahriman – 4, Zahhok – 5, shayton – 19, Iblis – 4 va subh (tong) – 576, xurshed (quyosh) – 405, nur – 194 kabi so'zlar ko'proq majoziy ma'nolarda ishlatilgan. Milliy, madaniy, tarixiy miflar zaminida she'rlarining badiiy-g'oyaviy saviyasini oshira olgani, irfoniy ishq va ezgulik qudrati, uning ahamiyati, axloqiy-psixologik jihatlari e'tiborga olingani bilan ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytganda, mifologiya qadimgi odamlarning yerdagi hayotning paydo bo'lishini, inson kuchsiz bo'lgan tabiiy hodisalarning sabablarini tushuntirishga urinishi sifatida paydo bo'lgan. Afsonalar badiiy adabiyotda simvolistlar tomonidan ramzlarni yaratish vositasi sifatida ishlatiladi. Afsona yordamida asarda ba'zi qo'shimcha g'oyalarni ifodalash mumkin bo'ladi. Afsona adabiy materialni umumlashtirish vositasidir. Ba'zi hollarda simvolistlar badiiy uslub sifatida afsonaga murojaat qilishadi. Mif misolning ma'nolariga boy vizual rolini o'ynaydi. Afsonaviy tasvir biror narsani anglatmaydi, bu "narsa", ramz esa belgini, biror narsani chuqur ma'nosini anglatadi. Bu ramzning shartli tabiati uni afsonadan ajratib turadi. Ramzning mafkuraviy-majoziy tomoni tasvirlangan obyektivlik bilan faqat ma'no bilan bog'liq va mazmunan chambarchas bog'liq emas. Mifda ko'rsatilgan haqiqat badiiy adabiyotda abstrakt tushunchani moddiy jihatdan namoyon qilishda asosiy vosita sifatida foydalaniladi.

Aytish joizki, Farzona badiiy ijod an'analariga sodiqlikda ham, novatorlik yo'nalishida ham zamondosh ijodkorlaridan farq qiladi. U xalq madaniyati mazmun-mohiyatini, xalq tilining sir-sinoatini chuqur o'zlashtirgani bois, she'rlarida badiiy adabiyot uchun eng qadimiy, lekin barcha davr-zamonlarda muhim sanalgan ijtimoiy, axloqiy, falsafiy, ishq-muhabbat kabi mavzular haqida bugungi zamon ruhiga hamohang tarzda, shaxs va jamiyatning yutuq va kamchiliklari, quvonch-u qayg'ulari bilan yashayotgan mutafakkir, hassos va iste'dodli ijodkor pozitsiyasidan fikr yuritadi, tuyg'u va kechinmalarini ifodalashda xalq madaniyati unsurlaridan innovatsion tarzda foydalanadi.

Qadimgi mifologiyaning mazmuni bilan tanishish nafaqat dunyoqarashni kengaytiradi, balki o'quvchiga badiiy va estetik zavq bag'ishlaydi.

## Адабиётлар/Литература/References:

1. Асрорӣ В, Амонов Р. Эҷодиёти даҳанакии халқи тоҷик. – Душанбе: Маориф, 1980.
2. Абдунабӣ Сатторзода. Аз Рӯдакӣ то Лоиқ. – Душанбе: Адиб, 2013.
3. Абдунабӣ Сатторзода. Аз Рӯдакӣ то Лоиқ. – Душанбе: Адиб, 2013.
4. Сирус Ш. Тарҳи аслии достони Рустам ва Исфандиёр. –Теҳрон, 1369.
5. Турсунзода М. Чароғи абадӣ. – Тошкент: Tamaddun, 2021.
6. Фарзона. Ишқ тасбеҳи. Одил Икром таржимаси. –Хужанд, Ношир, 2017.
7. Фарзона. Ҳама гул, ҳама тарона. – Хуҷанд: Хуросон-медиа, 2014. Ҷилди 1.
8. Ҳакимов М. Алишер Навоий лирикаси ва халқ оғзаки ижоди. – Тошкент: ФАН, 1979.

SCIENCE PROBLEMS.UZ

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPI1342V3SI5Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

## *№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).